

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA RANG -TUSNI BILDIRUVCHI SO'ZLARNING KOGNITIV TAHLILI

Alikulova Sevara Abduvassi qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti Filologiya fakulteti Ingliz tili funksional leksika kafedrasida o'qituvchisi, E-mail: sevara-alikulova@list.ru

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: til va tafakkur, kognitiv lingvistika, kognitiv tahlil, konsept, rang leksimalari.

Annotatsiya

Ushbu maqolada til va tafakkur, kognitiv tilshunoslik va uning vazifasi, kognitiv tahlil, konsept va rang tusni ifodalovchi leksimalar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ingliz va rang leksimalari bilan ifodalanuvchi frazeologik birliklarga misollar berilib, ularning tarjimalari keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Til va tafakkur munosabati bir-biriga o'zaro bog'liq masaladir. Lekin, bu ikki hodisa boshqa-boshqa hisoblanadi. Tafakkur voqelik haqidagi axborotni qabul qilish, to'plash, qayta ishlash va tartibga solish usuli bo'lsa, til voqelikni idrok etish va bilish qurolidir. Nutqiy birliklarning hosil bo'lishi va ularning tushunilishi ong bilan bog'liq, ya'ni aqliy faoliyat natijasi hisoblanadi. Aqliy faoliyat esa lisoniy bilimlarsiz maqsadli jarayon bo'la olmaydi. Shu jihatdan kognitiv tilshunoslikka lisoniy qobiliyatning tarkib topishini tushuntiruvchi fan deb qaraydilar.

Kognitiv tilshunoslik fani til va tafakkur munosabatini tadqiq etuvchi tilshunoslik bo'limi.

Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab chuqur ilmiy tadqiq etishdir.

Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa chiqadi.

Dunyoning lisoniy tasvirida rang-tusni ifodalovchi so'zlarning kognitiv tahlili hozirgi kunda rivojlanib borayotgan tilshunosligimizda, til va madaniyat, til va tafakkur hamda til va jamiyat bilan bog'liq sohalarida ularni tahlil qilish, bevosita nutqimizda qo'llash orqali so'z boyligimizni yanada oshirish va boshqa tillarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri bu – konsept tushunchasidir. "Kognitiv atamalar qisqacha lug'ati"da konsept inson ongida aks etgan dunyo manzarasi, mental leksikon, konseptual tizim va

tilning, xotiraning tarkibiy operativ birligi deb qaraladi. Lingvistik tushuncha sifatida konseptga ilk ta'rifni A. Vejbiskaya bergan edi. Unga ko'ra, «o'z nomiga ega va insonning «haqiqat» dunyosi haqidagi ma'lum madaniy shartlangan tasavvurlari «o'ziga xos» dunyosining obyektidir» deb ta'rif beriladi. Konsept inson aqliy dunyosidagi madaniyatning asosiy yacheykasidir. Konseptlar inson ongida nafaqat so'zning lug'aviy ma'nolari asosida, balki shaxsiy hamda butun bir xalqning madaniy – tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo'ladi. Masalan, rang- tusni ifodalovchi so'zlar konsepti uning tarkibida kiruvchi barcha tushunchalardan tashqari, rang-tus bilan bog'liq narsa, belgi, xislat, frazeologik birliklarni ifodalab, "u bilan bog'liq tushunchalar maydonini" hosil qiladi. Rangni bildiruvchi so'zlar tilda, ayniqsa, badiiy adabiyotda aktiv qo'llanuvchi, o'zining semantik va leksik xususiyatlari bilan alohida o'rinni egallovchidir. Ingliz tilida asosiy qo'llanuvchi ranglarga: **black, white, green, orange, yellow, grey, purple, red, blue, brown kiradi.**

Ingliz tili Collins Cobuild English-English lug'atida "colour" so'ziga quyidagi ta'riflar keltirilgan:

1. The colour of something is the appearance that it has as a result of the way in which it reflects light. Red, blue, and green are colours. 'What colour is the car?' - 'Red.'
2. A colour is a substance you use to give something a particular colour. Dyes and make-up are sometimes referred to as colours. ... It is better to avoid all food colours.
3. If you colour something, you use something such as dyes or paint to change its colour. We'd been making cakes and colouring the posters...
4. If someone colours, their face becomes redder than it normally is, usually because they are embarrassed. Andrew couldn't help noticing that she coloured slightly.

Shuningdek, rang leksimalari bilan ifodalanuvchi shunday frazeologik birliklar borki, ularni o'zbek tiliga tarjima qilganimizda ajoyib so'z birikmalari – tasviriy ifodalari hosil bo'ladi. Quyida ularning bir nechtasini keltirib o'tamiz:

Black gold- The term black gold refers to the black colour and high value of oil. (Qora oltin – neft. Much of his money is invested in black gold. Uning asosiy mablag'i qora oltinga sarflandi.

Black market - The black market refers to the illegal buying and selling of goods (Qora bozor – mahsulotlarning noqonuniy sotish va sotib olishga nisbatan qo'llaniladi) Be careful of what you buy on the black market - it's not always good quality. (Qora bozordan nima sotib olayotganingizga ehtiyot bo'ling – sifatli emas)

Black mood - To be in a black mood means to be irritable, angry or even depressed. (Yomon kayfiyat – tushkun, jahldor holatni ifodalaydi) You'd better keep away from Bill today.

He's in a black mood. Bugun Billidan uzoqroq urganing ma'qul, kayfiyati yomon.

Once in a blue moon If something occurs once in a blue moon, it happens very rarely. (Kamdan – kam, ora – churada) Bill has very little contact with his brother. They see each other once in a blue moon. Bill akasi bilan juda kam gaplashadi. Ular kamdan – kam bir- birlarini ko'radilar.

Green with envy Someone who is green with envy is a person who is very envious. (Hasad o'tida yonmoq) Dave will be green with envy when he sees Simon's new sports car! Dave Simonning yangi sport mashinasini sotib olganini ko'rsa, hasad o'tida yonadi.

White lie If you tell a white lie, you say something which is not true in order to protect someone or to avoid hurting their feelings. Some parents prefer to tell their children a white lie rather than announce bad news.

Green fingers -To have green fingers means to be good at gardening

(Mohir qo'llar) My dad was born with green fingers. Bobom mohir qo'llar bilan tug'ilgan edilar.

Out of the blue - If something happens out of the blue, it happens very unexpectedly. I had nearly given

up hope when out of the blue I was offered a job. Meni ishga taklif qilishganida deyarli umidimni uzgan edim.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa rang leksimasiga quyidagicha ta'riflar berilgan:

Rang

1. Bo'yash uchun ishlatiladigan modda, bo'yoq. Naqshinkor uy naqshlari eskitib rangi xiralangan, lekin hali diqqatni tortarlik holda (Oybek "Qutlug' qon")

2. Biror narsaning o'ziga xos bo'yog'i – tusi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go'jaga qatiq ham rang kirgizilmadi. (A. Qahhor, Anor)

3. Kishining yuzidagi qizillik darajasi. Yondashmagin yomonga ranging o'xshar somonga (Maqol)

"O'zbek tilining izohli lug'atida" oq - qor, sut, paxta ranglarini bildirib, oq doka, oq qog'oz, oq non kabi narsa va predmetlar belgisini bildirilishi aytiladi. Oq tusga moyil, tiniq yuz, badan tusini bildirish uchun ham oq rang qo'llaniladi: Oq badan, oq tanli, oq yuzli. Xotin o'tirmoqchi bo'lgan edi, parangi ichidan uning atlas kuylaklari va nafis oq qo'llari ko'rinib ketdi.

"**Oq bilak**"- qo'lini sovuq suvga urmaydigan, faqat o'ziga oro beradigan ayollarga nisbatan qo'llaniladigan ibora. Bu iboradagi oq so'zi rang-tus ma'nosidan cheklanadi. Oq so'zi boshqa rangni bildiruvchi so'zlarga nisbatan ibora, maqol, matallarda asosan ko'chma ma'noda qo'llanadi. Masalan: oq ko'ngil, oq qilmoq, oq yuvib, oq taramoq, oqpadar, oq-qorani tanigan, ko'zining oqu qorasi, manglayi oq bo'lsin, oq sutini oqqa, ko'k sutini ko'kka sog'moq, kosasi oqarmagan, oq-qorani tanimoq kabi. Bizning maqsadimiz – kishilarga ong, tushuncha bermoq, toki har bir kishi yaxshilik va yomonlikni, oqu qorani o'zi ajrata oladigan bo'lsin! – dedi Elmurod. (P.Tursun)

Ko'zining oq-u qorasi– birikmasidafarzand ko'chma ma'noda oq-qora ma'nosida kelgan juft sifat bo'lib, yakka-yu yagona degan ma'noni bildiradi.

Manglayi oq bo'lsin -iborasidagi oq so'zining semantik xususiyati yaxshilik niyatida qilingan olqish, duo ma'nosini ifodalagan.

O'zbek tilshunosligida oq rangi asosida shakllangan so'zlar talaygina.

Oq yo'l, oq ko'ngil, oq manglay kabi so'zlarda oq so'zi asl ma'nosidan cheklanib, ko'chma ma'noda kelgan. Oq rangi asosida shakllangan so'zlar lug'at boyligimizni yanada boyitib, semantik xususiyatini oshiradi

Qora o'zbek tili lug'at fondining qadimiy va asosiy so'zlaridandir. Qora so'zining asl ma'nosida rang-tus yotsa-da, bu so'z ham ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanadi. Ushbu so'zning qo'llanilishi eng qadimgi yozma yodgorliklarda, **O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida**, "**Devonu lug'otit-turk**" da uchraydi. Masalan, **qora kun, ko'ngli qora, qora niyat** kabilar shular jumlasidandir. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da bu so'zning yigirmaga yaqin ma'nosining keltirilishi uning tilimizda faol qo'llanilishidan dalolat beradi. Qora sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko'rsatish maqsadida qo'llanganda, emotsional-ekspressivlikdan xoli bo'ladi, bu vaqtda uning vazifasi rang to'g'risida xabar, ma'lumot berish bilan cheklanadi.

Ichi qora, yuragi qora birikmalarda qora so'zi o'z leksik ma'nosidan cheklanib, ko'chma ma'noda, ya'ni o'zganing muvaffaqiyatini ko'rolmaydigan insonlarga nisbatan aytiladi. Dili qoraning qilmishi – qiyiqlik. (Maqol)

Ko'k - tiniq osmon rangidagi moviy, zangori. Ushbu tusdagi bir qancha o'xshash ranglar ham ko'k deyiladi. Jonli so'zlashuvda ba'zankulrang rangini ham ko'k sifati bilan ishlatamiz. Ko'k bo'ri, ko'k kaptar.

Qizil - sifati ranglik xususiyatidan tashqari qon, lolaqizg'aldoq, cho'g', la'l kabi tushunchalarni beradi.

Qizil soʻzi oʻzbek lugʻati boyligining qadimiy va asosiy soʻzlari fondidan oʻrin olgan. “Qul-Tegin” obidasida ham bu soʻzni uchratish mumkin. Bu rang oddiy predmetlar sifatlovchisi boʻlib qoʻllanadi.

Yuzning, badanning shu tusga moyil rangi ham qizil, qizillik deb ataladi. Uning rangidagi qizilga yana qizillik qoʻshildi. (Oydin)

Umuman, rang bildiruvchi sifatlar tilda, ayniqsa, badiiy adabiyotda aktiv qoʻllanuvchi, oʻzining semantik va leksik xususiyatlari bilan alohida oʻrinni egallovchi soʻzlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Collins Cobuild. English-English dictionary
2. Michael Rundell. Macmillan -English Dictionary for Advanced learners. Second edition.2008. China.
3. Nasiba Yusupova.Ranglarga yashiringan sirlar. Toshkent -2010
4. Sayfullaeva R, Mengliev B, Boqieva G, Qurbonova M, Yunusova Z. Abuzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2009.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax: Sangzor, 2006.